

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NURALIYEV G‘AYRAT TURAYEVICH

**POLIOLEFINLAR VA TARKIBIDA AZOT, FOSFOR HAMDA
METALLAR BO‘LGAN OLIGOMERLAR ASOSIDA OLOVBARDOSH
MATERIALLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14–Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nuraliyev G‘ayrat Turayevich

Poliolefinlar va tarkibida azot, fosfor hamda metallar
bo‘lgan oligomerlar asosida olovbardosh materiallar
olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Нуралиев Гайрат Тураевич

Разработка технологии производства огнеупорных
материалов на основе азот, фосфор и металлсодержащих
полиолефинов и олигомеров.....21

Nuraliev Gayrat Turayevich

Development of technology for production of refractory
materials based on polyolefins and oligomers containing
nitrogen, phosphorus and metals.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NURALIYEV G‘AYRAT TURAEVICH

**POLIOLEFINLAR VA TARKIBIDA AZOT, FOSFOR HAMDA
METALLAR BO‘LGAN OLIGOMERLAR ASOSIDA OLOVBARDOSH
MATERIALLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14–Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4555. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiyev Panji Jovliyevich,
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nurqulov Fayzullo Nurmuminovich
texnika fanlari doktori, professor

Normurodov Baxtiyor Abdullayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01. raqamli ilmiy kengashning «29» 06 2024 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 251 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» 06 kuni tarqatildi.

(2024 yil «11» 06 dagi 7- raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A. Umbarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., dots.

Sh.A.Kasimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., dots.

R.V.Aliqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati Bugungi kunda dunyoda aholi va sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning yuqori sur'atlar bilan o'sishi olovbardosh polimer materiallarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan polimer materiallarning fizik-mexanik, termik xususiyatlarining yuqoriligi, past haroratga va ultrabinafsha nurlar ta'siriga chidamliligi tufayli ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra, tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan polimer materiallar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan polimerlarni modifikatsiyalash asosida olovbardosh polimer materiallar olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, nanoqo'shimchalar asosida organik materiallar olishda ularni turli xil modifikatsiyalash usullarini ishlab chiqish; tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan polimerlarni modifikatsiyalashda modifikatorlarni tanlash, organik materiallarning fizik va mexanik xossalari yaxshilash uchun adgeziya promotorlarini qo'llash orqali polimerlar bilan tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan dispers qo'shimchalar yuzasidagi adgeziyani kuchaytirish, kuchaytirilgan ekspluatasion va yuqori yong'inga chidamlilik xossalari ega bo'lgan organik materiallarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi organik materiallar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida¹ iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot turlarini ko'paytirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada, jumladan, organik materiallarning termik, mexanik va olovga chidamlilik kabi xususiyatlarini kuchaytirish maqsadida tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalab, yangi turdagi organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»g Farmoni, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-sonli «2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «VII. Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Poliolefinlarni tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalash asosida yangi polimer materiallar yaratish borasida dunyo bo'yicha quyidagi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, chet el olimlari: Y.Kojima, J.W.Gilman, R.A.Vaia, H.S.Nalva, Ch.A.Wilkiye, A.B.Morgan, M.L. Bras, S.Bourbigot, Y.Mingshu va F.Wang, A.A.Berlin, G.E.Zaikov tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida: S.Sh.Rashidova, A.T.Djalilov, N.R.Ashurov, S.S.Negmatov, X.X.To'rayev, A.A.Qurbonov, E.R.Turayev, P.J.Tojiyev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ular tomonidan tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalash va ular asosida organik materiallar olish texnologiyasi yaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalash asosida organik materiallar yaratish quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalash va organomodifikatorlar o'rtasidagi ta'sirlashish mexanizmini hamda maqbul sharoitini aniqlash;

tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalash asosida oldindan ma'lum xossali organik materiallar yaratish, fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarini qo'shimchalar tabiati va tarkibiga bog'liqligini tadqiq qilish;

tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalash asosida qulay va arzon texnologik va ekspluatatsion xossalarga ega organik materiallar olish texnologiyasini yaratish, ularning keng ko'lamda ishlatilishi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AO-T-2021-21-raqamli «Minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamalari ishlab chiqishning innovasion texnologiyasini yaratish» (2021-2023 y.y.) va BT-II-101 "Mahalliy xomashyolar asosida polivinilxoriddan (PVX) quvur, profil, lenoleum va uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish"(2021-2022 y.y.) mavzusidagi amaliy va fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan polipropilen-JM-375 hamda yuqori zichlikka ega chiziqli polietilenni modifikatsiyalash asosida olovbardosh organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan poliolefinlarni modifikatsiyalashning maqbul sharoitlarini aniqlash;

modifikatsiyalangan poliolefinlar asosida olingan organik materiallarning termik, fizik-mexanik va o'tga chidamlilik hususiyatlarini tadqiq etish;

modifikatsiyalangan poliolefinlar asosida olingan organik materiallarning fizik-mexanik xossalariga maleinlangan polietilenning (PEMA) ta'sirini aniqlash;

tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan poliolefinlar asosida organik materiallar olish va uning fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish;

poliolefinlar - past zichlikli chiziqli F-0220 markali polietilen va JM-375 markali polipropilenni tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalash asosida olovbardosh organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar, maleinlangan polietilen, polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen -F-0220 nanokompozitlari namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti modifikatorlar konsentratsiyasi va turli xil modifikatsiyalangan qo'shimchalarning organik nanokompozitlar shakllanishiga ta'sirini tadqiq etish, shuningdek, organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda olingan materiallarning tuzilishi va xossalarini o'rganishda rentgenfazaviy tahlil, skanerlovchi elektron mikroskopiya, infraqizil spektroskopiya, termogravimetriya va differensial skanerlovchi kalorimetriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlarni polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen -F-0220 suyuqlanmasida aralashtirish asosida modifikatsiyalangan organik materiallar oshishning maqbul sharoitlar aniqlangan;

organo-noorganik materiallar tarkibiga maleinlangan polietilen (PEMA) modifikatori kiritilishi bilan ularning zarbga chidamlilik xossalari JM-375da 50 kJ/m² dan 60 kJ/m² gacha va egilishga mustahkamlik xossalari 24 MPA dan 32 MPa ga ortishi isbotlangan;

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan turli polimerlar polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen-F-0220ga qo'shish orqali olingan organo-noorganik materiallarning 130°C harorat ta'siriga chidamliligi aniqlangan;

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan turli polimerlar - polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen-F-0220 suyuqlanmasida aralashtirish usuli bilan JM-375/PEMA/AT-1, JM-375/PEMA/AT-2, JM-375/PEMA/AT-3, F-0220 /PEMA/AT-1, F-0220/PEMA/AT-2 F-0220/PEMA/AT-3 tarkibli olovbardosh organo-noorganik materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan

turli polimerlar polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen-F-0220 asosidagi organo-noorganik nanokompozitlarni olishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan turli polimerlar polipropilen- JM-375 va past zichlikli chiziqli polietilen-F-0220 asosidagi organik materiallarning fizik-mexanik va termik xossalari bog'liqligi aniqlangan;

modifikatsiyalangan poliolefinlar asosida ultra binafsha nurlarga chidamli va olovbardosh organik materiallar ishlab chiqilgan;

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan polimerlar asosidagi organik materiallarning yonishga barqarorlik xossalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi termomexanik, fizikaviy va fizik-kimyoviy (termogravimetrik, elektron mikroskopik, rentgen fazali, IQ-spektroskopik) zamonaviy tadqiqot usullarining barchasi bilan isbotlangan va ilmiy tadqiqot natijalarining tajriba-sanoat sinovidan o'tganligi, amaliyotga joriy etilganligi ularning dalolatnomalari bilan tasdiqlangan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan poliolefinlar asosida oldindan ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan organik materiallar ishlab chiqarishning ilmiy asoslari yaratilganligi, shuningdek, olingan tadqiqot natijalarining umumlashtirilishi natijasida kompleks xossalari yaxshilangan organik materiallar olish usullari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyolar asosidagi tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan poliolefinlar- past zichlikli chiziqli F-0220 markali polietilen va JM-375 markali polipropilen asosida «olish-qayta ishlash-buyum» sxemasi bo'yicha sanoat ko'lamida turli maqsadlarga mo'ljallangan, fizik-mexanik, texnologik va ekspluatasion xususiyatlari yaxshilangan, olovbardosh organik materiallar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar bilan modifikatsiyalangan organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

tarkibida azot, fosfor va metall bo'lgan oligomerlar bilan polimerlar - past zichlikli chiziqli F-0220 markali polietilen va JM-375 markali polipropilenni modifikatsiyalash asosida olingan organik materiallar «Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi» "AJ" da fizik-mexanik xossalari yaxshilangan termik chidamli organik materiallar olishda amaliyotga joriy qilingan («Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi» "AJ ning 2023 yil 09 iyndagi 02/2154-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, issiqlikka chidamliligi 130°C bo'lgan modifikatsiyalangan polietilen va issiqlikka chidamliligi 190°C bo'lgan modifikatsiyalangan polipropilen materiallar olish imkonini bergan;

modifikatsiyalangan polimerlar asosida organik materiallar olish texnologiyasi «Sho'rtan gaz kimyo majmuasi» MChJ da olovbardosh organik materiallar olishda

amaliyotga joriy qilingan («Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi» MChJ ning 2023 yil 08 iyundagi 030/-2212-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elektr simlari uchun termik barqaror, olovbardosh va ultrabinafsha nurlar ta’siriga chidamli qoplamalar ishlab chiqarishda foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shu jumladan, 4 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’jekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tarkibida azot, fosfor va metallar bolgan oligomerlar va poliolefinlar asosida organik materiallar olishning zamonaviy usullari**” deb nomlangan birinchi bobida polimerlarni modifikatsiyalashning asosiy usullari, tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar va poliolefinlar asosida organik materiallarning olinishi va ularning xossalari, tabiiy qo‘shimchalar asosidagi organik materiallarga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar sintezi, tadqiqot ob’ekti va usullarining tavsifi**” deb nomlangan ikkinchi bobida materiallar va dastlabki moddalarning tavsifi, tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar sintezi, sinov va o‘lchov usullari berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Olingan organik materiallar xossalarining tadqiqoti**” bo‘yicha olingan natijalarning tahliliga bag‘ishlangan. Bu bobda organik materiallarning reologik xossalari; organik materiallarning oquvchanlik ko‘rsatkichining maleinlangan poletilen miqdoriga bogliqligi; olingan materiallarning past haroratda va UB nurlanish tasirida fizik mexanik hossalarining o‘zgarishini o‘rganish; organik materiallarning termik hossalarini; oligomerlar va tolali to‘ldiruvchilar asosida organik materiallar olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Organik materiallarning reologik xossalari. 1-jadvalda 190°C da polimer organik materiallar tarkibiga polimer massasiga nisbatan 0,5; 1,0; 1,5 va 2,0 mas. %da azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar kiritilishi bilan suyuqlanmaning oquvchanlik ko‘rsatkichining (SOK) o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

1-jadval

Polietilen F-0220 asosida olingan organik materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichi, g/10 min (190°C, 2,16 kg)

№	Organik materiallar	Oligomerlarning 100 massa qism polimerga nisbatan qo'shilgan miqdori (%)			
		0	3	4	5
1	F-0220	2,5	-	-	-
2	F-0220 / AT-1	-	2,1	2,1	2,0
3	F-0220 / AT-2	-	1,8	1,8	1,6
4	F-0220 / AT-3	-	2,1	2,0	1,9

F-0220 / AT-1 organo-noorganik materiallarda 190°C haroratda polimer tarkibiga qo'shimchalar kiritilishi bilan, dastlab SOK sezilarli pasaymaydi, keyin esa qo'shimchalar miqdori 3,0 mas. % bo'lganda SOK miqdori 2,5 dan 2,1 ga teng bo'lsa, to'ldiruvchi miqdori 5,0 mass. % ga etganda SOK miqdori sezilarli kamayadi.

2-jadvalda F-0220 asosidagi organik materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining maleinlangan polietilen miqdoriga bog'liqligi keltirilgan.

2-jadval

Organik materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining maleinlangan polietilen miqdoriga bog'liqligi (190°C; 2,16 kg), g/10min

Organik materiallar	Maleinlangan polietilen (PEMA) miqdori (%)				
	0	0,5	1,0	1,5	2,0
F-0220 / AT-1	2,2	2,0	1,9	1,8	1,8
F-0220 / AT-2	2,0	2,0	1,8	1,7	1,7
F-0220 / AT-3	2,2	2,1	2,0	1,9	1,9

3-jadval

Polipropilen JM-375 asosidagi organik materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichi, g/10min (220°C; 2,16 kg)

Organik materiallar	Oligomerlarning 100 massa qism polimerga nisbatan qo'shilgan miqdori (%)			
	0	3	4	5
JM-375	40			
JM-375/AT-1	40	35	32	30
JM-375/AT-2	40	35	33	31
JM-375/AT-3	40	36	34	32

3-jadvaldan ko'rinadiki, 190°C haroratda JM-375 tarkibiga oligomer AT-1 qo'shilganda, dastlab SOK sezilarli o'zgar olmaydi, keyin esa qo'shimchalar miqdori 3,0 mas. % bo'lganda SOK qiymati 35 ga teng bo'ladi, 5,0 mass. %ga bo'lganda SOK qiymati 30 ga teng bo'ldi.


4-jadvalda PP asosidagi organik materiallarga maleinlangan polietilen 0,5 dan 2,0 mas. %. konsentratsiyagacha qo'shilganda uning SOK o'zgarishi keltirilgan. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, organik materiallarga PEMA 1,0 mas.% kiritilganda SOK o'zgarishi yuqori darajada kamayadi.

4-jadval


Polipropilen JM-375 asosidagi organik materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining maleinlangan polietilen miqdoriga bog'liqligi (190°C; 2,16 kg), g/10min

Organik materiallar	Maleinlangan polietilen (PEMA) miqdori (%)				
	0	0,5	1,0	1,5	2,0
JM-375	40				
JM-375 / AT-1	40	34	30	28	28
JM-375 / AT-2	40	34	32	29	29
JM-375 / AT-3	40	34	30	28	28

Olingan organik materiallarning fizik-mexanik xossalari. Ushbu ishda F-0220 tarkibiga azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlarni 3 dan 5 mas.% gacha qo'shish orqali ularning polietilen xossalariga ta'siri o'rganildi. Bu erda 1-1,0%, 2-1,5% , 3- 0,5% kompozit tarkibiga qo'shilgan PEMA miqdori.



1-rasm. F-0220/PEMA/AT-1 tarkibli namunaning nisbiy cho'zilish ko'effitsiyenti.



2-rasm. F-0220/PEMA/AT-2 tarkibli namunaning nisbiy cho'zilish ko'effitsiyenti.

5-jadvalda azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar asosida olingan organik materiallarning fizik-mexanik xossalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.


5-jadval

Polietilen F-0220 asosida olingan organik materillarning fizik-mexanik xossalarning qiyosiy tahlili

Olingan organik materiallar	Zarbga chidamlilik, kDj/m ²	σ egilishga chidamlilik, MPa	σ uzilishga chidamlilik, MPa	Nisbiy torayish, %
F-0220	50	24	21	3
F-0220/AT-1	46	25	23	2,7
F-0220 PEMA/AT-1	58	32	34	2,8
F-0220/AT-2	48	26	22	2,2
F-0220/PEMA/AT-2	60	34	32	2,6
F-0220/ AT-3	46	24	22	2,8
F-0220/PEMA/AT-3	59	32	33	2,3

Polipropilen JM-375 asosida olingan organik materiallarning fizik-mexanik xossalarning qiyosiy tahlili

Olingan organik materiallar	Zarbga chidamlilik, KJ/m ² Izod bo'yicha	σ qayish-qoqlik moduli, MPa	σ uzilishga chidamlili k, MPa	Nisbiy cho'zilish, %	Nisbiy torayish, %
JM-375	5,5	11000	240	50	2
JM-375/ AT-1	5,5	11200	235	48	1,7
JM-375/ PEMA/AT-1	5,8	11300	245	52	1,8
JM-375/ AT-2	5,5	11100	240	47	1,5
JM-375/ PEMA/AT-2	5,7	11250	248	49	-
JM-375/ AT-3	5,5	11100	236	46	1,7
JM-375/ PEMA/AT-3	5,8	11300	248	50	-




4-rasm. JM-375/ PEMA/AT-1 tarkibli organik materialning SEMda olingan tasviri

6-jadvaldan ko'rinadiki, zarbga chidamlilik maksimal qiymatga ega bo'ladi va dastlabki JM-375ga nisbatan 5,5 dan JM-375/ PEMA/AT-1 hamda JM-375/ PEMA/AT-2 tarkibli namunalar uchun tegishli 5,8 va 5,7 kJ/m² gacha, shuningdek, JM-375/ PEMA/AT-3 tarkibli namunalar uchun 5,8 gacha ko'tariladi. JM-375 da kompatibilizator PEMAning kiritilishi 5,5 dan 5,8 kJ/m² gacha

oshiradi.

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, Organik materiallar tarkibida qo'shimchalar polimer matrisasida bir xil o'lchamda tekis tarqalgan.



5-rasm. Polietilen F-0220 asosida olingan organik materiallarning IQ spektrlari : JM-375/ PEMA/AT-1 (a) va JM-375/ PEMA/AT-3 (b)

7-jadval

Polietilen F-0220 asosida olingan organik materiallarning zarbga chidamlilik xossasining o'zgarishi

Modifikatsiyalangan organik materiallar	Zarbga chidamlilik, kJ/m ²	
	23°C	-30°C da 100 soat
F-0220	50	40
F-0220 / AT-1	45	42
F-0220 / PEMA/AT-1	58	55
F-0220 / AT-2	48	45
F-0220 / PEMA/AT-2	60	58
F-0220 / AT-3	46	43
F-0220 / PEMA/AT-3	59	56

KM larning IQ-spektrlarida -NH guruhlariga tegishli bo'lgan sohalar 2000 va 2800 sm⁻¹ diapazonda kuzatiladi. 2850-1470 sm⁻¹ sohalarida -CH₂-guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalari mavjud. IQ-spektrda=CH- guruhga tegishli bo'lgan 2987 sm⁻¹ sohalar, -CH₂- guruhga tegishli bo'lgan 2892 sm⁻¹ sohada yutilish chastotalari kuzatiladi. 880-870 sm⁻¹ sohalarida -O-O- guruhlari, 1000-1100 sm⁻¹ sohalarida Si-O-

guruhlari mavjudligi kuzatiladi. Hidroksil guruhlarning valent tebranish chastotalariga 3595 sm⁻¹ sohalar tegishli ekanligi qayd etilgan.

Olingan organik materiallarni -30°C haroratda ushlab turish natijasida shu narsa aniqlandiki, F-0220 ning zarbga chidamliligi 50 dan 40 kJ/m² ga keskin pasaydi. F-0220/PEMA/AT-1 tarkibli materialda esa 58 kJ/m² dan 55 kJ/m² ga, F-0220/PEMA/AT-2 tarkibli materialda esa 60 kJ/m² dan 58 kJ/m² ga, F-0220/PEMA/AT-3 tarkibli materialda esa 59 kJ/m² dan 56 kJ/m² ga pasayganligini ko'rish mumkin. Bu esa olingan organik materiallarning past haroratga chidamliligini ko'rsatadi.

8-jadval

Polipropilen JM-375 asosidagi organik materiallarning 290-320 nm to'lqin uzunligidagi UB nurlar ta'sirida doimiy (25°C) haroratda 120 soat davomida fizik-mexanik xossalarining o'zgarishi

Modifikatsiyalangan organik materiallar	Zarbga chidamlilik, kJ/m ² Izod bo'yicha		Egillishga chidamlilik, MPa	
	UB nurlanish-gacha	UB nurlanishdan keyin	UB nurlanishgacha	UB nurlanishdan keyin
JM-375	5,5	5,0	90	70
JM-375/ AT-1	5,5	5,4	94	79
JM-375/ PEMA/AT-1	5,8	5,6	98	84
JM-375/ AT-2	5,5	5,4	98	95
JM-375/ PEMA/AT-2	5,7	5,6	100	87
JM-375/ AT-3	5,5	5,4	98	86
JM-375/ PEMA/AT-3	5,8	5,7	102	96

8-jadvalda JM-375/PEMA/AT-1, JM-375/PEMA/AT-2 JM-375/PEMA/AT-3 tarkibli organik materiallarda 120 soat davomida UB nurlar bilan nurlantirilgandan so'ng zarbga chidamlilik tegishli 5,8 dan 5,6 kJ/m² ga, 5,7 dan 5,6 kJ/m² ga, 5,8

dan 5,7 kJ/m² ga, ga pasayganligini ko'rish mumkin. Bu natijalar olingan materiallarning UB nurlar ta'siriga chidamli ekanligini bildiradi.

9-jadval

Polietilen F-0220 asosidagi organik materiallarning 290-320 nm to'lqin uzunligidagi UB nurlar ta'sirida doimiy (25°C) haroratda 120 soat davomida fizik-mexanik xossalarning o'zgarishi

Modifikatsiyalangan organik materiallar	Zarbga chidamlilik, kJ/m ²		Egillishga chidamlilik, MPa	
	UB nurlanish-gacha	UB nurlanish-dan keyin	UB nurlanish-gacha	UB nurlanish-dan keyin
F-0220	50	35	24	19
F-0220 / AT-1	46	31	35	28
F-0220 / PEMA/AT-1	60	52	36	32
F-0220 / AT-2	68	60	38	34
F-0220 /PEMA/AT-2	47	32	37	31
F-0220 / AT-3	62	54	38	34
F-0220 / PEMA/AT-3	71	64	40	35

9-jadvallardan ko'rish mumkinki, organik materiallar tarkibiga 1,0 mas % miqdorda modifikator PEMA qo'shilganda, 120 soat davomidagi UB nurlar ta'siridagi organik materiallarning zarbga chidamlilik xossasini 90%gacha saqlab qolganligini ko'rish mumkin.

10-jadval

Polipropilen JM-375 asosidagi organik materiallarning DSKda olingan termodinamik ko'rsatkichlari


Modifikatsiyalangan organik materiallar	T bosh. suyuq, °C	Tpik. suyuq, °C	Entalpiya, ΔN, Dj/g	Kristallanish darajasi α, %
JM-375	220	224	188	55
JM-375/ PEMA/AT-1	380	400	203	59
JM-375/ PEMA/AT-2	400	440	207	61
JM-375/ PEMA/AT-3	380	440	209	57

11-jadval

Polietilen F-0220 asosidagi organik materiallarning DSKda olingan termodinamik ko'rsatkichlari

Modifikatsiyalangan organik materiallar	T bosh. suyuq, °C	Tpik. suyuq, °C	Entalpiya, ΔN, Dj/g	Kristallanish darajasi α, %
F-0220	125	134	182	62
F-0220 / AT-1	126	137	199	68
F-0220 / PEMA/AT-1	127	139	193	66
F-0220 / AT-2	129	143	190	65
F-0220 /PEMA/AT-2	128	140	207	71
F-0220 / AT-3	130	142	194	66
F-0220 / PEMA/AT-3	132	146	189	65

DSK ma'lumotlari (10-11-jadvallar) shuni tasdiqlaydiki, oligomerlar bilan to'ldirilgan organik materiallarda teplofizik xossalarning ortganligini ko'rish mumkin.



8-rasm. Polipropilen JM-375 asosidagi organik materiallarning difraktogrammalari JM-375/ PEMA/AT-1 (a), JM-375/ PEMA/AT-2 (b).

Organik materiallarning difraksiyon spektrlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, modifikatsiyalangan qo'shimchalarning qatlamlararo masofasi qanchalik katta va maleinlangan polimerning konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, organik materiallarga kiritilgan qo'shimchalarning eksfoliatsiya darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Olingan organik materiallar interkalirlangan yoki eksfolirlangan darajada bo'lgan nanokompozitlar turiga quyidagi kompozitlar kiradi.

12-jadval

Polipropilen JM-375 asosida olingan JM-375/PEMA/AT-1 tarkibli organik materiallarning difraktogramma natijalari

T/r	2theta- skanerlash burchagi	d-Tekisliklararo masofa	I-Pik intesivligi	FWHM- reflekslarning integral kengligi
1	8.3000	10.77381	373	0.4778
2	8.7800	10.17907	380	0.5700
3	21.0120	4.23353	475	0.5584
4	23.2833	3.81734	65	0.5400
5	27.0004	3.39296	436	0.8992

13-jadval

Polipropilen JM-375 asosida olingan JM-375/PEMA/AT-2 tarkibli organik materiallarning difraktogramma natijalari

T/R	2 theta- skanirlash burchagi	d-Tekisliklararo masofa	I-Pik intesivligi	FWHM- reflekslarning integral kengligi
1	6.0200	16.000	223	0.3461
2	9.0010	10.020	233	0.4642
3	12.0020	7.0560	776	0.3481
4	25.0200	4.6020	531	0.2863
5	27.0300	4.4600	270	0.3871

Zarrachalarning o'lchami va shaklini eksperimental tadqiq qilishda rentgen fazoviy analiz usullari (Debay-Sherrer usuli) yordamida aniq natijalarga erishish mumkin

14-jadval

Polipropilen JM-375 asosidagi JM-375/PEMA/TEAS/AT-1 tarkibli organik materiallarning Debay-Sherrer formulasi bo'yicha nanozarrachalarning o'lchamini hisoblash natijalari

T\r	2theta- Skanirlash burchagi	FWHM- reflekslarning integral kengligi	Dp (nm)- kristallitlarning o'rtacha o'lchami	Dp (nm) o'rtacha
1	8.2	0.478	17.42	15.61
2	8.7	0.57	14.61	
3	21.3030	0.5584	15.12	
4	24.0203	0.54	15.70	
5	26.2200	0.56	15.23	

15-jadval

Polipropilen JM-375 asosidagi JM-375 asosida olingan JM-375/PEMA/AT-2 tarkibli organik materiallar Debay-Sherrer formulasi bo'yicha nanozarrachalarning o'lchamlari

T\r	2theta- Skanerlash burchagi	FWHM- reflekslarning integral kengligi	Dp (nm)- kristallitlarning o'rtacha o'lchami	Dp (nm) o'rtacha
1	6.025	0.3461	24.03	23.53
2	8.5571	0.4642	17.94	
3	12.212	0.3481	23.99	
4	24.8731	0.2868	29.65	
5	26.459	0.3871	22.04	

Rentgen fazoviy analiz natijalariga ko'ra, barcha organik materiallarda zarrachalar o'lchami nanomasshtabda ekanligi aniqlandi.

F-0220 / PEMA/AT-1 tarkibli namunada 50% massa yo'qotilishi 490°C da kuzatilib, u dastlabki polietilenga nisbatan 25°C ga yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu namuna to'liq parchalanmasdan sinovdan keyin 20 mas. % namuna miqdori qoladi. Destruksiyaning maksimal tezligi 0,03 mg/°C ni tashkil etadi.

16-jadval

Polietilen F-0220 asosidagi organik materiallarning termogravimetrik analiz natijalari

Organik materiallar	T _{parchalanish} harorati, °C	T _{50%-massa} yo'qotilish, °C	Maksimal parchalanish tezligi, mg/°C
F-0220	430	465	0,038
F-0220 / PEMA/AT-1	460	490	0,03
F-0220 / PEMA/AT-2	455	485	0,035
F-0220 / PEMA/AT-3	445	490	0,04

Termoplastik polimerlarning fizikaviy xossalari harorat o'zgarishi bilan o'zgaradi. Polimerlar harorat ta'sirida metallarga nisbatan 6-9 marta kengayish va torayish xususiyatiga ega.


17-jadval

Oligomerlar asosida modifikatsiyalangan organik materiallarning chiziqli termik kengayish koeffitsiyenti

№	Organik materiallar	ChTKK × 10 ⁻⁵ , 1/°C	№	Organik materiallar	ChTKK × 10 ⁻⁵ , 1/°C
JM-375 markali polipropilen asosidagi organik materiallar			F-0220 markali polietilen asosidagi organik materiallar		
1.	JM-375	32	8	F-0220	26
2.	JM-375/ AT-1	35	9	F-0220 / AT-1	25
3.	JM-375/ PEMA/AT-1	25	10	F-0220 / PEMA/AT-1	23
4.	JM-375/ AT-2	22	11	F-0220 / AT-2	22
5.	JM-375/ PEMA/AT-2	28	12	F-0220 /PEMA/AT-2	24
6.	JM-375/ AT-3	25	13	F-0220 / AT-3	23
7.	JM-375/ PEMA/AT-3	21	14	F-0220 / PEMA/AT-3	21

Ushbu ishda modifikatorning optimal konsentratsiyasi 1,0 mas. %. ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Organik materiallarda modifikator konsentratsiyasining 1,0 mas.% dan kam bo'lishi natijalarning o'zgarishiga olib keladi.

Olingan natijalar asosida ChTKKning kamayib borish tartibini quyidagi ketma-ketlikda ko'rsatish mumkin: JM-375/PEMA/AT-1 < JM-375/PEMA/AT-2 < JM-375/PEMA/AT-3



10-rasm. O'rganilgan namunalarning termomexanik egrilari.

- 1) F-0220 /PEMA/AT-1; 2) F-0220 /PEMA/AT-2; 3) F-0220 / PEMA/AT-3

Olingan natijalar asosida ChTKKning qiymatlarining pasayish tartibini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: F-0220 /PEMA/AT-1 > F-0220 /PEMA/AT-2 > F-0220 / PEMA/AT-3

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha egrilar bir xil ko'rinishga ega, F-0220ga tegishli bo'lgan tipik amorf-kristall polimerga xos bo'lgan yuqori kristall fazasiga ega.

Organik materiallarning yonuvchanlik xossasi kislorod indeksi usuli yordamida aniqlandi. F-0220 va JM-375 polimerlariga qo'shimchalar kiritilishi bilan kislorod indeksi dastlabki polimerkarga nisbatan mos ravishda 19 dan 26 va 25% gacha ko'tarildi (19-jadval).

19-jadval.

Olingan organik materiallarning issiqbardoshlik va yonuvchanlik xususiyatlari

Olingan organik materiallar	Yonish vaqti, s	Havoda yonish vaqtida massa yo'qotishi, %	Kislorod indeksi, % ob.	Destruksiyaning boshlang'ich harorati, °C	Koks qoldig'i 700°C da, %	Vika bo'yicha issiqbardoshlik, °C
F-0220	240	58	19	280	18	95
F-0220 / PEMA/AT-1	112	27	25	284	35	103
F-0220 /PEMA/AT-2	114	28	26	285	36	105
F-0220 / PEMA/AT-3	113	28	26	283	34	107
JM-375	118	31	25	274	31	95
JM-375/ PEMA/AT-1	115	30	24	273	30	100
JM-375/ PEMA/AT-2	121	30	25	275	29	98

Barcha namunalarning elastiklik moduli va siqilishdagi majburiy elastiklik moduli chegarasi aniqlandi. Bunda nisbatan yuqori elastiklik modulini JM-375 asosida olingan JM-375/PEMA/TEAS/AT-2 tarkibli kompozit (684 MPa) namoyon qiladi (20-jadval).

20-jadval.

Organik materiallarning elastiklik moduli va siqilishdagi majburiy elastiklik moduli chegarasi qiymatlari


Organik materiallar	Majburiy elastiklik moduli Y_e , MPa	Siqilishdagi majburiy elastiklik moduli chegarasi σ_u , MPa
F-0220	310	20
F-0220 / PEMA/AT-1	536	24
F-0220 /PEMA/AT-2	665	27
F-0220 / PEMA/AT-3	672	30
JM-375	675	24
JM-375/ PEMA/AT-1	684	26
JM-375/PEMA/AT-2	520	23
JM-375/ PEMA/AT-3	639	25

Organik materiallarning relaksatsion xossalariga to'ldiruvchi turining ta'sirini quyidagi tarkibli organik materiallar relaksatsion xossalarini solishtirish orqali o'rganildi: 1) JM-375/PEMA/AT-1; 2) JM-375/PEMA/AT-2; 3) JM-375/PEMA/AT-3;

Dissertatsiyaning “Tarkibida azot, fosfor va metallar bo'lgan oligomerlar va poliolefinlar asosida olingan organik materiallarni ishlab chiqarishga joriy etish va ularni texnik-iqtisodiy asoslash” deb nomlangan to'rtinchi bobida modifikatsiyalangan organik materiallar tayyorlashning texnologik jarayonlari

keltirilgan. Polimer granulasi va kerakli qo‘shimchalar hamda modifikator tarozida tortib olindi. Barcha reaktivlar maxsus aralashtirgichga solinib, 620 ayl/min bilan 10 daqiqa davomida xona haroratida aralashtirildi. Shundan so‘ng, granulyatorda polimerning suyuqlanish harorati chegarasida aralashtirilib, polimer organik materiallar granulasi olindi. Undan keyin organik materiallar ekstruderga joylandi.

Polimer materiallardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun asosiy texnologik parametrlar va texnologik sxema ishlab chiqildi (11-rasm)



1-transpartiyor; 2-4-dozatorlar; 5-aralashtirgich; 6-ekstruder; 7-granulyator; 8-qabul qilish apparati; 9-tayyor mahsulotni nazorat qilish stoli.

11-rasm. Organik materiallar ishlab chiqarish texnologik sxemasi

Polimerlardan qo‘shimchalar asosida organik materiallar olish texnologik jarayonlari uzluksiz ravishda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: 1-bosqich-xom ashyoni tayyorlashda tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar kerakli o‘lchamda sharli tegirmonda maydalanadi, 2-bosqichda maydalangan xom ashyolar 1 mkm o‘lchamdagi elakdan o‘tkaziladi, 3-bosqichda elangan xom ashyo dozatorga joylanadi, 4-bosqich barcha dozatorlarga joylashtirilgan hom ashyolar aralashtirgichda aralashtiriladi, 5-bosqichda aralashmani granulyatorda granula holiga keltiriladi, 6-bochqich ekstruziya bosqichi bo‘lib, bunda polimer organik materiallar ekstruziyalanadi va nihoyat 7-bosqichda tayyor mahsulotolinadi.

Organik materiallar ishlab chiqarilishning iqtisodiy samaradorligi.

21-jadval

Tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar asosida 1 tonna mahsulot ishlab chiqarishning tannarxi

No	AT-2 markali modifikatorlarni	Xom ashyo narxi 1 kg uchun, so‘m	1 tonna modifikator uchun	Summasi, so‘m
1	Ammofos,	4000	60	240000
2	Karbamid	3900	60	234000
3	Natriy metasilikat	2500	56	140000
4	Melamin	19000	63	1197000
5	Kalsiy oksidi	1250	56	70000
6	PEMA	25000	30	750000
7	JM-375	17000	675	11475000
Jami:				14106000

21-jadvaldan ko‘rish mumkinki, azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar asosida 1tonna KM ishlab chiqarish uchun mahsulot tannarxi **14106000** so‘mni tashkil etadi.

Xulosalar

1. Tarkibida, azot, fosfor, hamda metallar bo‘lgan oligomerlarni polipropilen-JM-375 va past zichlikka ega chiziqli polietilen F-0220 suyuqlanmasida aralashtirib, kompleks texnologik va ekspluatasion xossalari yaxshilangan JM-375 /PEMA/AT-1, JM-375/PEMA/AT-2, JM-375/PEMA/AT-3, F-0220/PEMA/AT-1, F-0220/PEMA/AT-2, F-0220/PEMA/AT-3 tarkibli organik materiallar olish texnologiyasi taklif etildi.

2. Organik materiallarning fizik-mexanik xossalarining modifikator va qo‘shimchalarning konsentratsiyasiga bog‘liqligi aniqlandi. Buning natijasida organik materiallar tarkibiga modifikator PEMA kiritilishi bilan ularning zarbga chidamlilik xossalari JM-375da 5,5 kJ/m²dan 5,8 kJ/m² gacha va uzilishga mustahkamlik xossalari 240MPa dan 245 MPa ga ortishi ko‘rsatib berildi.

3. Polimerlar F-0220 va JM-375larga tarkibida, azot, fosfor, hamda metallar bo‘lgan oligomerlarni va PEMAni qo‘shish orqali organik materiallarning past harorat ta‘siriga chidamliligi JM-375 asosidagi organik materiallarda 5,8 dan 5,5 kJ/m²ga, F-0220 asosidagi organik materiallarda 71 dan 65 kJ/m²ga o‘zgarishi isbotlandi. Bundan kelib chiqib, past haroratga chidamli organik materiallarni olishda tarkibida, azot, fosfor, hamda metallar bo‘lgan oligomerlarni qo‘shimchalar sifatida qo‘llash tavsiya etildi.

4. Polietilen va polipropilen tarkibiga 5% miqdorda azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlarning kiritilishi natijasida organik materiallarning VIKA bo‘yicha issiqlikka chidamliligining JM-375 asosida olingan organik materiallarda 90 °C dan 100 °C o‘zgarishga F-0220 asosidagi organik materiallarda 95 °C dan 107°C ga oshishi isbotlandi. Mahalliy ishlab chiqarishda issiqlikka chidamli polimer kompaundlarini olishda azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlarni samarali qo‘shimchalar sifatida qo‘llash tavsiya etildi.

5. Tarkibida azot, fosfor va metallar bo‘lgan oligomerlar bilan to‘ldirilgan organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan natijalar asosida: termik barqaror va olovbardosh materiallar, «Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi» «AJ» va «Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi» MChJ, da amaliyotga joriy qilingan, «Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi» «AJ ning 2023 yil 09 iyndagi 02/2154-sonli va «Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi» MChJning 2023 yil 08 iyndagi 030/-2212-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada termik barqaror, olovbardosh va ultrabinafsha nurlar ta‘siriga chidamli elektr simlari uchun qoplamalar ishlab chiqarishda foydalanish imkonini bergan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НУРАЛИЕВ ГАЙРАТ ТУРАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ
ОГНЕСТОЙКИХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ АЗОТ, ФОСФОР И
МЕТАЛЛСОДЕРЖАЩИХ ОЛИГОМЕРОВ И ПОЛИОЛЕФИНОВ**

02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/T4555.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.terstu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель: Тожиев Паижи Жовлиевич
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты: Нуркулов Файзулла Нурмунинович
доктор технических наук, профессор
Нормуродов Бахтиёр Абдуллаевич
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «29» 06 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 при Термезском государственном университете по адресу: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz).


Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета за №251 с которой можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «11» 06 2024 года.
(протокол рассылки № 7 от «11» 06 2024г.).




И.А. Умбаров
Председатель научного совета
по присуждению ученой
степени, д.т.н., доц.


Ш.А.Касимов
Ученый секретарь научного
совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., доц.


Р.В.Аликулов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Сегодня в мире высокие темпы роста производства у населения и на промышленных предприятиях обуславливают рост спроса на огнеупорные полимерные материалы. В частности, из-за высоких физико-механических и термических свойств полимерных материалов, модифицированных олигомерами азота, фосфора и металлов, устойчивости к низким температурам и ультрафиолетовым лучам, большое внимание уделяется их производству в промышленных масштабах. Соответственно, важно получать полимерные материалы, модифицированием азот, фосфор и металлсодержащими олигомерами.

В мире ведется научно-исследовательская деятельность, направленная на получение огнестойких полимерных материалов на основе модификации полимеров олигомерами, содержащими азот, фосфор и металл. В связи с этим ведется разработка различных методов их модификации при получении органических материалов на основе нанодобавок; подбор модификаторов при модификации полимеров олигомерами, содержащими азот, фосфор и металлы, усиление адгезии на поверхности дисперсных добавок, содержащих азот, фосфор и металлы, путем использования промоторов адгезии для улучшения физико-механических свойств органических материалов и необходимо создание органических материалов с повышенными эксплуатационными и высокими огнестойкими свойствами.

В нашей стране химическая промышленность достигает определенных результатов в производстве новых видов продукции, в том числе реализуются масштабные мероприятия в области снабжения местного рынка органическим сырьем, замещающим импорт. В Республике большое внимание уделяется внедрению научно обоснованной системы управления промышленными объектами и природоохранным мероприятиям посредством внедрения инновационных технологий. В «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»¹ определены приоритетные направления развития экономики и особо обозначены вопросы увеличения ассортимента готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, освоения качественно новых видов продукции и технологий на основе глубокой переработки местных сырьевых ресурсов. В связи с этим актуальна разработка технологии получения новых видов органических материалов путем модификации их азот, фосфор и металлсодержащими олигомерами, с целью усиления таких свойств органических материалов, как термическая, механическая и огнестойкость.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года за № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, “№ПП-3236 от 23 августа 2017 года, “О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы”, №ПП-

¹Указ Президента Республики Узбекистан, от 28 января 2022 года УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”

3983 от 25 октября 2018 года “О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы”, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование посвящено развитию науки и технологий республики "VII. Химические технологии и нанотехнологии".

